Innovatsion iqtisodiy rivojlanish sharoitida hududiy iqtisodiy tizimni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlari Oʻzbekiston olimlari Q.X. Abdurahmonov, S.R. Toʻpildiyev, R.R. Hasanov, Sh.R. Xolmoʻminov, D. Rahimova, A. Qulmatov, Z. Nuriddinov, B.Yu. Xoʻdiyev, F. Qodirov hamda innovatsion iqtisodiyot nazariyasining klassiklari N. Rozenberg, Y. Shumpeter, K. Friman, B.O. Lundvall, R. Nelson, P. Patel, K. Pavitt tomonidan keng koʻlamda tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlar hududiy iqtisodiy tizim boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash mexanizmlarining nazariy-uslubiy asoslarini yoritishda muhim ilmiy manba boʻlib xizmat qiladi. Shunga qaramay, mavjud ishlarda hududiy iqtisodiy tizimning ichki muhiti (innovatsion salohiyat, R&D, kadrlar) va tashqi muhiti (innovatsion klasterlar, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish omillari) koʻpincha alohida-alohida, tavsifiy tarzda tahlil qilinadi; ularning oʻzaro dinamik taʼsirini miqdoriy — ekonometrik usullar bilan baholashga qaratilgan ishlar yetarli emas. Xalqaro adabiyotda ham (quyida koʻrib chiqiladi) innovatsion ekotizim ichidagi ishtirokchilar va muhit oʻrtasidagi koevolyutsion (birgalikda rivojlanish) tahlillar asosan yirik iqtisodiyotlar (Xitoy, Yevropa Ittifoqi) misolida olib borilgan; oʻtish iqtisodiyoti mamlakatlari, jumladan, Oʻzbekiston hududlari kesimida bunday panel tahlil deyarli amalga oshirilmagan. Bu boʻshliq mazkur tadqiqot yoʻnalishini belgilashga asos boʻldi.

Soʻnggi oʻn yillikda “innovatsion ekotizim” tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarda tobora koʻproq oʻrin egallamoqda. Jumladan, L. Pileliyene va G. Yusyavichyus innovatsiya, smart-turizm, raqamlashtirish va tadbirkorlik klasterlariga birlashgan tadqiqot sinergiyalarini aynan raqamlashtirish, barqaror rivojlanish va smart-muhit yoʻnalishlaridan biri sifatida koʻrsatgan [3]. Innovatsion ekotizimning konseptual asoslari borasida Yu. Pidoricheva hududiy innovatsion ekotizimni maqsad, aktyorlar, muhit hamda ichki va tashqi oʻzaro bogʻliqlik tizimi sifatida taʼriflovchi konseptual modelni taklif qilgan [4]. Ushbu model mazkur tadqiqotning nazariy negizini tashkil etadi, chunki u aynan ichki va tashqi muhitlar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirni ekotizim yaxlitligining markaziy elementi sifatida belgilaydi. Hududiy innovatsion tizim (Regional Innovation System, RIS) yondashuvining globallashuv sharoitidagi dolzarbligini B.T. Asheym, A. Isaksen va M. Trippl tahlil qilib, hududiy daraja innovatsion siyosat uchun hamon muhim tahlil miqyosi boʻlib qolayotganini asoslagan [5].

Boshqaruv va hududga yoʻnaltirilgan (place-based) siyosat masalalarida A. Morisson va M. Doussino hududiy innovatsion boshqaruv uchun yagona, universal model mavjud emasligini, har bir hudud oʻziga xos institutsional sharoitlarga moslashtirilgan siyosat ishlab chiqishi lozimligini toʻrtta hududiy innovatsion agentlik (Niderlandiya, Ispaniya, Kolumbiya) misolida koʻrsatgan [6]. H. Pinto, M. Laranja va E. Uyarra rivojlanayotgan hududlarda (Braziliyaning Pernambuku shtati misolida) aqlli ixtisoslashuv (smart specialisation) strategiyasini joriy etishda davlat organlari va innovatsion vositachilarning roli, shuningdek, nomarkazlashtirish, innovatsion madaniyat va ishtirokchilik boshqaruvi kabi uchta asosiy muammoni aniqlagan [7]. Ushbu amaliyot Oʻzbekiston hududlari uchun ham dolzarb boʻlib, mahalliy davlat hokimlik organlarining vositachilik funksiyasini kuchaytirish zarurligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, K. Kim, S. Ferrante va D. Kogler Yevropaning 164 ta hududida aqlli ixtisoslashuv strategiyalarining hududning haqiqiy bilim salohiyatiga mos kelmasligi mumkinligini, yaʼni “tasavvur va voqelik oʻrtasidagi tafovut” xavfini ogohlantirgan [8], ushbu xulosa hududiy ekotizim modellarini haqiqiy mahalliy salohiyatga tayangan holda qurish zarurligini asoslaydi.

Ekotizim ichidagi ishtirokchilar va muhitning dinamik, birgalikda rivojlanish (coevolution) jarayonlarini oʻrganishda H. Pang rahbarligidagi xitoylik olimlar guruhi murakkab moslashuvchan tizimlar (Complex Adaptive Systems, CAS) nazariyasi asosida Xitoyning 30 ta provinsiyasi misolida dinamik konfiguratsion tahlil (fsQCA) oʻtkazgan. Ularning asosiy xulosasiga koʻra, kuchli davlat investitsiyalari yuqori darajadagi hududiy innovatsiya uchun zaruriy shart boʻlsa, kuchsiz korxona R&D xarajatlari past darajadagi innovatsiya uchun zaruriy shartdir; shu bilan birga, hududiy innovatsiya tobora koʻproq bir nechta omilning birgalikdagi taʼsiriga bogʻliq boʻlib bormoqda [9]. Ushbu yondashuv mazkur tadqiqotda ekotizim elementlarining koʻp omilli, birgalikdagi taʼsirini kompozit indeks asosida baholash zarurligini asoslashga xizmat qildi.

Raqamli transformatsiya va barqaror/yashil innovatsiya oʻrtasidagi bogʻliqlik borasida K. Gashi Kosovoda faoliyat yuritayotgan 411 ta kichik va oʻrta korxona misolida raqamli transformatsiyaning yashil innovatsiyaga ijobiy va statistik ahamiyatli taʼsirini ($\beta=0,334$; $p<0,001$) aniqlagan, bunda raqamli inson kapitali sifati asosiy harakatlantiruvchi omil ekanligini koʻrsatgan [10]. Xitoylik olimlar H. Jang, H. Liu va R. Chen esa koʻp qatlamli innovatsion tarmoqlarning rezilentligini tahlil qilib, bilim tarmogʻidagi uzilishlar innovatsion ekotizim boʻylab kaskadli taʼsir koʻrsatishini, shuning uchun texnologik bilimni himoya qilish hamkorlikni saqlashdan ustuvor ekanligini isbotlagan [11].

Barqaror hududiy rivojlanish va ijtimoiy innovatsiya mavzusida F. Olaniyan va O. Ipinnaye Nigeriyaning resurslarga boy Niger Delta mintaqasi misolida ijtimoiy innovatsiyani barqaror hududiy rivojlanishga muqobil yo'l sifatida ko'rib, yuqoridan-pastga va pastdan-yuqoriga strategiyalarini birlashtiruvchi hamkorlikdagi boshqaruv (collaborative governance) modelini taklif qilgan [12]. A. Dooranov Qirg'iziston va Xitoy kichik va o'rta korxonalarini qiyoslab, resursi cheklangan hududlarda barqaror rivojlanishga erishish uchun yirik iqtisodiyotlarning raqamli transformatsiya modellarini to'g'ridan-to'g'ri nusxalash o'rniga, arzon raqamli vositalar, maqsadli salohiyat oshirish va davlat-biznes muvofiqlashtirilgan hamkorligini birlashtiruvchi gibrid strategiyalar samaraliroq ekanligini ko'rsatgan [13], bu esa O'zbekiston hududlari uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Innovatsion muhitning individual darajadagi ta'sirini Xitoyning 4007 nafar ilmiy xodimi orasida o'tkazilgan empirik so'rov asosida o'rganib, Yu. Ju hududiy innovatsion muhitning ilmiy xodimlarning innovatsion xatti-harakatiga ijobiy va statistik ahamiyatli ta'sirini, karyeradan qoniqish hissi esa bu bog'liqlikda vositachi rol o'ynashini aniqlagan [14]. Strategik forsayt yo'nalishida F. Sappellano rahbarligidagi italiyalik olimlar Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi tajribasi asosida ijtimoiy muammolarga yo'naltirilgan hududiy siyosatda oldindan ko'ra bilish salohiyatini shakllantirish zarurligini asoslagan [15]. Ta'lim, biznes va fanni hududiy darajada integratsiyalashgan boshqarish borasida V. Фетщенко Rossiya misolida uch tomonlama (triple helix) integratsiya modelini, oliy ta'lim muassasalari va biznes hamjamiyati o'rtasidagi axborot-tahliliy hamkorlik modelini taklif qilgan bo'lib [16], ushbu tashabbus O'zbekistondagi innovatsion klasterlarni shakllantirishda ilk namuna sifatida qaralishi mumkin.

Nazariy-metodologik nuqtayi nazardan P. Nijkamp "Yangi iqtisodiy geografiya" (New Economic Geography) paradigmasining 21-asr noaniqliklari, jumladan, raqamli texnologiyalar sharoitida hududlarni boshqarish uchun ahamiyatini qayta ko'rib chiqqan, "resursli hudud", "bardoshlilik" va "prozilentlik" kabi tushunchalarni ilgari surgan [17]. Yakunda, A. Askvaye rahbarligidagi ingliz olimlari guruhi generativ sun'iy intellekt asosida davlatlarning aylanma iqtisodiyotga tayyorligini bashorat qiluvchi model ishlab chiqqan, bu kompozit indeks va prognozlashtirish usullaridan hududiy/milliy tayyorlikni baholashda foydalanish tendensiyasi kuchayib borayotganini ko'rsatadi [18]. Ushbu tendensiya mazkur tadqiqotda ekotizim komponentlarini kompozit indeks orqali baholash yondashuviga mos keladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi hamda mahalliy davlat hokimlik organlarining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida shakllantirilgan panel ma'lumotlar bazasidan foydalanildi. Asosiy ekonometrik baholash 2016–2024-yillarni qamrab oladi, chunki 2025-yil bo'yicha bir qator ko'rsatkichlar hali rasman shakllanmagan. Ko'rsatkichlar ikki guruhga ajratildi: (A) innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari — innovatsion natija (innovation output) hajmi, R&D xodimlari soni, R&D xarajatlari, AKT/raqamli xizmatlar hajmi; (B) hududiy iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari — aholi jon boshiga hududiy yalpi mahsulot (YAHM), asosiy kapitalga investitsiyalar, eksport hajmi, bandlik darajasi va sanoat ishlab chiqarish hajmi.

Natijaviy o'zgaruvchi (Y) sifatida aholi jon boshiga YAHM logarifmi (ln GRP per capita, xarid qobiliyati pariyeti proksisi) qabul qilindi. Tadqiqotimizda quyidagi model asosida qo'llanildi:

Innovatsion salohiyat va innovatsion natijalarning YAHMning aholi jon boshiga ta'sirini baholash modeli asosida Fixed Effects (FE) panel regressiyasi, hudud darajasida klasterlangan standart xatolar (cluster-robust SE) bilan tahlil qilindi.

Kengaytirilgan ekotizim modeli orqali asosiy innovatsion salohiyat va innovatsion natijalariga sanoat ishlab chiqarish hajmi ko'rsatkichi qo'shilgan holda, tashqi muhit elementlarining qo'shimcha ta'sirini nazorat qilish hamda uchinchi model sifatida indeks modeli, ya'ni adaptiv innovatsion boshqaruv indeksining iqtisodiy natijaga ta'siri asosida min-max usulida normallashtirilgan innovatsion salohiyat, raqamli muhit, innovatsion faoliyat va iqtisodiy baza kompozit indekslariga asoslangan, ekotizim elementlarining birgalikdagi (yaxlit) ta'siri baholandi.

Multikollinearlik muammosini bartaraf etish maqsadida barcha mustaqil o'zgaruvchilar bo'yicha dispersiyani kengaytirish koeffitsiyenti (VIF) testi o'tkazildi (1-jadval), bu natijalarning multikollinearlik bilan buzilmaganligini tasdiqlaydi. Model tanlovi (FE yoki tasodifiy effektlar, RE) bo'yicha Hausman testi o'tkazildi, biroq qisqa panel sharoitida (N=14, T=9) kovariatsiya matritsasi manfiy natija berib, barqaror xulosaga kelmadi, bu esa kichik namunalarda tez-tez uchraydigan holatdir. Shu sababli, hudud-spetsifik kuzatilmagan omillarning regressorlar bilan yuqori korrelyatsiyalanish ehtimoli yuqoriligidan kelib chiqib, nazariy jihatdan FE model afzal ko'rildi (1-jadval).

1-jadval.
Multikollinearlik (VIF) diagnostikasi natijalari[3]

| O'zgaruvchi | VIF (M1) | VIF (M2) | Xulosa |
|---|---|---|---|
| Innovatsion natija (ln) | 2,12 | 2,41 | muammosiz |
| R&D xodimlari (ln) | 4,22 | 4,23 | muammosiz |
| R&D xarajatlari (ln) | 3,33 | 3,50 | muammosiz |
| AKT/raqamli investitsiyalar (ln) | 3,73 | 4,20 | muammosiz |
| Investitsiyalar (ln) | 2,70 | 5,09 | muammosiz |
| Eksport (ln) | 5,83 | 6,75 | muammosiz |
| Bandlik darajasi | 2,28 | 2,29 | muammosiz |
| Sanoat ishlab chiqarish hajmi (ln) | — | 6,69 | muammosiz |

1-jadvalda ko'rsatilganidek, barcha ko'rsatkichlar bo'yicha VIF qiymati 10 dan ancha past. M1 modelida eng yuqori qiymat eksport ko'rsatkichi uchun 5,83 ni, M2 (kengaytirilgan) modelida esa eksport (6,75) va sanoat ishlab chiqarish hajmi (6,69) ko'rsatkichlari uchun eng yuqori qiymatlarni tashkil etdi. Bu natijalar multikollinearlik muammosining mavjud emasligini va regressiya koeffitsiyentlarining buzilmaganligini tasdiqlaydi. Model tanlovi (FE yoki tasodifiy effektlar, RE) bo'yicha Xausman testi o'tkazildi, biroq qisqa panel sharoitida (N=14, T=9) kovariatsiya matritsasi manfiy natija berib, barqaror xulosaga kelmadi, bu esa kichik namunalarda tez-tez uchraydigan holatdir. Shu sababli, hudud-spetsifik kuzatilmagan omillarning regressorlar bilan yuqori korrelyatsiyalashish ehtimoli yuqoriligidan kelib chiqib, nazariy jihatdan FE modeli afzal ko'rildi.

Metodologik cheklovlar sifatida shuni ta'kidlash lozimki, panel hajmining kichikligi (N=14, T=9) sababli koeffitsiyentlar yuqori aniqlik ko'rsatkichi sifatida emas, balki tendensiya sifatida talqin qilinishi tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada faqat statik (bir davrli) o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi hamda boshqaruvning vaqt bo'yicha kumulyativ (dinamik/lagli) xususiyatlari, shuningdek, hududlarni yagona indeks asosida reytinglash masalalari tadqiqotning navbatdagi ilmiy yangiliklari doirasida alohida tadqiq etiladi va ushbu maqola chegarasidan tashqarida qoladi (2-jadval).

2-jadval.
Panel statsionarlik (Fisher turdagi ADF) testi natijalari[4]

| O'zgaruvchi | Daraja, $\chi^2(28)$ | p (daraja) | 1-farq, $\chi^2(28)$ | p (1-farq) | Xulosa |
|---|---|---|---|---|---|
| ln(YAHM, aholi jon boshiga) | 29,09 | 0,408 | 168,19 | 0,000 | I(1) |
| ln(Innovatsion natija) | 159,77 | 0,000 | 144,83 | 0,000 | I(0) |
| ln(R&D xodimlari) | 19,53 | 0,881 | 65,18 | 0,000 | I(1) |
| ln(R&D xarajatlari) | 13,73 | 0,989 | 58,65 | 0,001 | I(1) |
| ln(AKT/raqamli investitsiyalar) | 13,56 | 0,990 | 73,36 | 0,000 | I(1) |
| ln(Investitsiyalar) | 57,30 | 0,001 | 108,75 | 0,000 | I(0) |
| ln(Eksport) | 13,55 | 0,990 | 54,98 | 0,002 | I(1) |

Ushbu natijalarga ko'ra, natijaviy o'zgaruvchi (ln GRP per capita) hamda bir qator mustaqil o'zgaruvchilar (R&D xodimlari, R&D xarajatlari, AKT/raqamli investitsiyalar, eksport) daraja (level) ko'rinishida statsionar emas (I(1)) — ya'ni nolinchi gipoteza ("barcha kesimlarda birlik ildiz mavjud") rad etilmaydi, biroq birinchi farqda (Δ) barcha o'zgaruvchilar uchun statsionarlik tasdiqlanadi ($p<0,01$). Shu bilan birga, innovatsion natija va investitsiyalar ko'rsatkichlari daraja ko'rinishida ham statsionar (I(0)) bo'lib chiqdi. Aralash integratsiya tartibi (ba'zi o'zgaruvchilar I(0), ba'zilari I(1)) qisqa va kichik hududiy panellarda, ayniqsa, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida keng tarqalgan holat hisoblanadi va bu holat FE baholashning o'zini inkor etmaydi, biroq natijalarni talqin qilishda ehtiyotkorlikni talab etadi: daraja ko'rinishidagi nostatsionarlik uzoq muddatli (T katta) panellarda soxta regressiya (spurious regression) xavfini oshiradi, lekin qisqa T (T=9) va katta N/T nisbati sharoitida, ko'pgina hududiy-iqtisodiy tadqiqotlarda bo'lgani kabi, FE baholash amaliy standart sifatida saqlanib qoladi, chunki FE modellar hududlararo statik kesim bog'liqligini baholashga yo'naltirilgan, dinamik, lagli munosabatlarni emas. Shu sababli, ushbu maqolada olingan koeffitsiyentlar uzoq muddatli muvozanat munosabati emas, balki 2016–2024-yillardagi statik, kesimlararo tendensiya sifatida talqin qilinishi tavsiya etiladi.

Diagnostik tekshiruvlar. Multikollinearlik muammosini bartaraf etish maqsadida barcha mustaqil o'zgaruvchilar bo'yicha dispersiyani kengaytirish koeffitsiyenti (VIF) testi o'tkazildi (barcha ko'rsatkichlar bo'yicha VIF<10, eng

3 Manba: muallif tomonidan panel ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan (N=126, statsmodels kutubxonasi). Umumiy qoidaga ko'ra, VIF>10 qiymati jiddiy multikollinearlikdan dalolat beradi.
4 Manba: muallif tomonidan panel ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan. Har bir o'zgaruvchi uchun N=14 hudud kesimida individual ADF testlari (intercept, maxlag=1) o'tkazilib, natijalar Fisher (Maddala–Wu) usulida birlashtirilgan. Xulosa ustunida I(0) - daraja ko'rinishida statsionar, I(1) - birinchi farqda statsionar (daraja ko'rinishida nostatsionar) ekanligini bildiradi.

yuqori qiymat eksport koʻrsatkichi uchun 6,75 ni tashkil etdi), bu natijalarning multikollinearlik bilan buzilmaganligini tasdiqlaydi. Model tanlovi (FE yoki tasodifiy effektlar, RE) boʻyicha Xausman testi oʻtkazildi, biroq qisqa panel sharoitida (N=14, T=9) kovariatsiya matritsasi manfiy natija berib, barqaror xulosaga kelmadi, bu kichik namunalarda tez-tez uchraydigan holatdir. Shu sababli, hudud-spetsifik kuzatilmagan omillarning regressorlar bilan yuqori korrelyatsiyalashish ehtimoli yuqoriligidan kelib chiqib, nazariy jihatdan FE modeli afzal koʻrildi.

Metodologik cheklov sifatida shuni taʼkidlash lozimki, panel hajmining kichikligi (N=14, T=9) sababli koeffitsiyentlar yuqori aniqlik koʻrsatkichi sifatida emas, balki tendensiya sifatida talqin qilinishi tavsiya etiladi. Shuningdek, yuqorida koʻrsatilgan aralash statsionarlik natijalari koeffitsiyentlarni uzoq muddatli elastiklik sifatida emas, qisqa muddatli statik bogʻliqlik sifatida baholash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bundan tashqari, ushbu maqolada faqat statik (bir davrli) oʻzaro bogʻliqlik tahlil qilinadi; boshqaruvning vaqt boʻyicha kumulyativ (dinamik/lagli) xususiyatlari, shuningdek, hududlarni yagona indeks asosida reytinglash masalalari tadqiqotning navbatdagi ilmiy yangiliklari doirasida alohida tadqiq etiladi va ushbu maqola chegarasidan tashqarida qoladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

3-jadval.
Fixed effect va indeks modellari natijalari[5]

| Oʻzgaruvchi | M1: Asosiy oʻsish modeli | M2: Kengaytirilgan ekotizim modeli | M5: Indeks modeli |
|---|---|---|---|
| Innovatsion natijalar (ln) | 0,228*** (p=0,001) | 0,239*** (p=0,001) | — |
| R&D xodimlari (ln) | -0,234*** (p=0,007) | -0,250*** (p=0,004) | — |
| R&D xarajatlari (ln) | -0,009 (p=0,853) | -0,001 (p=0,983) | — |
| IT/raqamli xizmatlar (ln) | -0,045 (p=0,488) | -0,050 (p=0,417) | — |
| Investitsiyalar (ln) | -0,282 (p=0,398) | -0,235 (p=0,390) | — |
| Eksport (ln) | -0,112 (p=0,706) | -0,049 (p=0,861) | — |
| Bandlik darajasi | 0,019 (p=0,402) | 0,022 (p=0,353) | — |
| Sanoat ishlab chiqarish hajmi (ln) | — | -0,322 (p=0,459) | — |
| Innovatsion salohiyat indeksi | — | — | -1,334 (p=0,111) |
| Raqamli muhit indeksi | — | — | -0,276 (p=0,539) |
| Innovatsion faoliyat indeksi | — | — | 1,973*** (p=0,004) |
| Iqtisodiy baza indeksi | — | — | -0,040 (p=0,978) |
| N / Within $R^2$ | 126 / 0,524 | 126 / 0,530 | 126 / 0,450 |

3-jadval natijalariga koʻra, innovatsion natija koʻrsatkichi (ln_inno) hududiy iqtisodiy natijaga barqaror, ijobiy va statistik ahamiyatli taʼsir koʻrsatadi (M1: β=0,228, p=0,001; M2: β=0,239, p=0,001); ushbu natija innovatsion ekotizim ichidagi elementlarning oʻzaro bogʻliqligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, R&D xodimlari sonining manfiy va statistik ahamiyatli koeffitsiyenti (β=-0,234...-0,250, p<0,01) eʼtiborga loyiq — bu koʻproq xodim jalb qilish emas, balki mavjud R&D salohiyatidan samarali foydalanish muhimligini koʻrsatishi mumkin. R&D xarajatlari, AKT/raqamli xizmatlar, investitsiyalar, eksport va bandlik darajasi koʻrsatkichlari joriy davrda alohida olinganda statistik ahamiyatga ega emas. Indeks modelida esa faqat innovatsion faoliyat indeksi ijobiy va statistik ahamiyatli natija bergan (β=1,973, p=0,004), boshqa kompozit indekslar (innovatsion salohiyat, raqamli muhit, iqtisodiy baza) ahamiyatsiz chiqdi. Demak, real faoliyat va natija koʻrsatkichlarining salohiyat koʻrsatkichlariga qaraganda YAHM bilan kuchliroq bogʻliqligini, yaʼni ekotizim elementlari alohida emas, balki birgalikda taʼsir koʻrsatganda ahamiyatli natija berishini koʻrsatadi (2-rasm).

5 Manba: muallif tomonidan panel maʼlumotlari asosida hisoblab chiqilgan. Y oʻzgaruvchi: logarifmlangan YAHMning aholi jon boshiga nisbatida hisoblangan. FE, cluster(region) SE. *** p<0,01, ** p<0,05, * p<0,10.




**2-rasm. M1 modeli koeffitsiyent (yillik dammi o'zgaruvchilar va konstanta chiqarib tashlangan holda)**[6]

2-rasmda M1 modelining asosiy koeffitsiyentlari grafikda aks ettirilgan (qizil rang — p<0,05 darajasida statistik ahamiyatli natijalarni bildiradi). Koʻrinib turibdiki, innovatsion natija (ln_inno, β=0,228) va R&D xodimlari soni (ln_rdworker, β=-0,234) koʻrsatkichlari statistik ahamiyatli boʻlib, biri ijobiy, ikkinchisi esa manfiy yoʻnalishda taʼsir koʻrsatadi. Qolgan koʻrsatkichlar (R&D xarajatlari, AKT/raqamli xizmatlar, investitsiyalar, eksport, bandlik darajasi) joriy davrda alohida olinganda statistik ahamiyatga ega emas; bu ularning taʼsiri faqat boshqa ekotizim elementlari bilan birgalikda (kompozit indeks shaklida) namoyon boʻlishini koʻrsatadi (3-rasm).




**3-rasm. Innovatsion faoliyat natijalari va hududiy iqtisodiy natija oʻrtasidagi bogʻliqlik (2016–2024-yil, hudud-yil kuzatuvlari asosida)**[7]

6 Manba: muallif ishlanmasi.
7 Manba: muallif ishlanmasi.

3-rasmda innovatsiya natijalari va aholi jon boshiga YAHM oʻrtasidagi bogʻliqlik aks ettirilgan. Grafikda chiziqli trendning musbat qiyalikka ega ekanligi innovatsiya natijalari ortishi bilan aholi jon boshiga YAHM ham oʻsish tendensiyasiga ega ekanligini koʻrsatadi. Biroq kuzatuvlarning trend chizigʻi atrofida tarqalishi mazkur munosabatning mutlaq emasligini va iqtisodiy oʻsishga investitsiyalar, inson kapitali, eksport hamda boshqa institutsional omillar ham taʼsir koʻrsatishini anglatadi. Umuman olganda, grafik innovatsiya faolligi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Olingan ilmiy topilmalarning ishonchliligi bir necha jihatdan taʼminlandi: birinchidan, natijalar turli model spetsifikatsiyalari boʻyicha izchil chiqdi. Ikkinchidan, hudud darajasida klasterlangan standart xatolardan foydalanildi. Uchinchidan, VIF diagnostikasi multikollinearlik muammosining yoʻqligini tasdiqladi. Toʻrtinchidan, panel statsionarlik testi orqali oʻzgaruvchilarning integratsiya tartibi aniqlanib, natijalar shunga mos ravishda ehtiyotkorlik bilan talqin qilindi. Shu bilan birga, kichik panel hajmi natijalarning statistik quvvatini cheklashi mumkinligini alohida taʼkidlash lozim.

Olingan natijalar Yu. Pidoricheva tomonidan taklif qilingan konseptual modelni, yaʼni hududiy innovatsion ekotizimni maqsad, koʻrsatkichlar va muhit oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik tizimi sifatida koʻrish gʻoyasini empirik tarzda tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqotda hududiy iqtisodiy tizimning ichki (innovatsion koʻrsatkichlar, R&D) va tashqi (raqamli, barqarorlik) muhitlari oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir YAHMning aholi jon boshiga koʻrsatkichini statistik ahamiyatli darajada shakllantirishi isbotlandi [4]. Bu, shuningdek, H. Pang tomonidan Xitoy provinsiyalari misolida aniqlangan, hududiy innovatsiya tobora koʻproq yakka omillar emas, balki bir nechta omilning birgalikdagi taʼsiriga bogʻliqligi toʻgʻrisidagi xulosaga mos keladi [9]. Ushbu tadqiqotda ham alohida R&D xarajatlari emas, balki kompleks innovatsion faoliyat indeksi statistik ahamiyatli natija bergan.

R&D xodimlari sonining manfiy koeffitsiyenti dastlab kutilmagan natija boʻlib tuyulishi mumkin, biroq bu Yu. Ju tomonidan aniqlangan xulosa bilan uygʻunlashadi: hududiy innovatsion muhitning ilmiy xodimlar faoliyatiga ijobiy taʼsiri faqat karyeradan qoniqish va tegishli institutsional sharoitlar mavjud boʻlgandagina namoyon boʻladi. Boshqacha aytganda, R&D kadrlar sonining oʻsishi oʻz-oʻzidan natija bermaydi, balki ularning faoliyat samaradorligini oshiruvchi institutsional muhit (motivatsiya, infratuzilma, hamkorlik tizimlari) zarur hisoblanadi [14]. Xuddi shunga oʻxshab, raqamli xizmatlar koʻrsatkichining alohida olinganda ahamiyatsiz, ammo innovatsion faoliyat indeksi tarkibida ahamiyatli boʻlishi K. Gashi hamda H. Jang kabi olimlarning ilmiy xulosalariga mos keladi [10, 11]. Raqamli transformatsiyaning ijobiy taʼsiri, odatda, alohida koʻrsatkich sifatida emas, balki boshqa ekotizim elementlari (inson kapitali, innovatsion faoliyat) bilan birgalikda namoyon boʻladi.

Ichki va tashqi muhit elementlarining har bir hududda turlicha namoyon boʻlishi A. Morisson tomonidan asoslangan “yagona, universal hududiy innovatsion siyosat modeli mavjud emas” degan xulosani tasdiqlaydi. R&D xodimlari sonining manfiy, innovatsion faoliyat indeksining esa ijobiy taʼsiri shuni koʻrsatadiki, resurslarni koʻpaytirishga emas, balki ularning oʻzaro bogʻliq holda samarali ishlatilishiga qaratilgan, hududga moslashtirilgan boshqaruv yondashuvi zarur. Bu, shuningdek, H. Pinto tomonidan taʼkidlangan, davlat organlarining vositachilik va muvofiqlashtiruvchi roli hududiy innovatsion ekotizim samaradorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega degan xulosa bilan hamohangdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot Oʻzbekistonning 14 hududi boʻyicha 2016–2024-yillarni qamrab olgan panel ekonometrik tahlil vositasida hududiy iqtisodiy tizimning ichki va tashqi muhitlari oʻrtasidagi dinamik oʻzaro taʼsirlarni baholash asosida “innovatsion ekotizim” konsepsiyasiga tayangan hududlarni innovatsion boshqarish modelini empirik jihatdan asosladi va takomillashtirdi. Panel statsionarlik (Fisher-ADF) testi, VIF multikollinearlik diagnostikasi va hudud darajasida klasterlangan standart xatolar orqali natijalarning ekonometrik ishonchliligi taʼminlandi. Fixed Effects modellari innovatsion koʻrsatkichlar va hududiy iqtisodiy natija oʻrtasidagi barqaror, ijobiy va statistik ahamiyatli bogʻliqlikni tasdiqladi. Indeks modeli esa ekotizim elementlarining yaxlit, birgalikdagi taʼsiri alohida koʻrsatkichlarga qaraganda kuchliroq ekanligini koʻrsatdi.

Olingan ilmiy natijalar nafaqat nazariy jihatdan xalqaro adabiyotlar bilan uygʻunlashadi, balki amaliy jihatdan ham Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022 — 2026-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-165-son[8] Farmoni doirasida hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ilmiy-texnik salohiyati va mavjud resurslarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanishning hududiy dasturlarini ishlab chiqishda qoʻllanilishi mumkin. Amaliy tavsiya sifatida mahalliy davlat hokimlik organlariga innovatsion siyosatni alohida-alohida koʻrsatkichlarni (masalan, faqat R&D xodimlari sonini) oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar toʻplami sifatida emas, balki innovatsion salohiyat, muhit va faoliyatni yaxlit ekotizim sifatida boshqarish tavsiya etiladi.

8 https://lex.uz/docs/-6102462

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Acquaye, A., Patro, P.K., Quaye, E., et al. Bridging technological innovation and socio-technical transitions: A generative AI model for predicting circular economy readiness. Technology in Society, Volume 87, August 2026, 103359.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769

3. Lina Pileliene & Giedrius Jucevicius, "A Decade of Innovation Ecosystem Development: Bibliometric Review of Scopus Database". Sustainability, MDPI, vol. 15(23), pages 1-26, November 2023.

4. Iryna Pidorycheva, Hanna Shevtsova, et al. A Conceptual Framework for Developing of Regional Innovation Ecosystems. European Journal of Sustainable Development (2020), 9, 3, 626-640. ISSN: 2239-5938. Doi: 10.14207/ejsd.2020.v9n3p626.

5. Asheim, B. T., Isaksen, A. & Trippl, M. The role of the Regional Innovation System approach in contemporary regional policy: is it still relevant in a globalised world? In Regions and innovation policies in Europe (pp. 12-29). Edward Elgar Publishing.

6. Morisson, A., & Doussineau, M. Smart Specialisation Strategies and Mission-oriented Approach: Bridging Theory and Practice. Solvay Brussels School of Economics and Management-ULB.

7. Pinto, H., Laranja, M., Uyarra, E. Smart specialization, public authorities, and innovation intermediaries in developing regions. Regional Sustainability, 2024.

8. Kim, K., Ferrante, C., & Kogler, D. F. (2024). Smart Specialisation Strategies and Regional Knowledge Spaces. Regional Studies, 58(12), 2501-2517.

9. Pang, H., Jiang, Y., Wu, L., Wang, L. Optimizing regional innovation ecosystems through actor-environment coevolution: A dynamic configurational analysis from a CAS perspective. PLoS One. 2026 Jan 21;21(1):e0341011. doi: 10.1371/journal.pone.0341011.

10. Gashi, K., Usaj, V., Bibiqaj, A., et al. Digital transformation as a catalyst for green innovation: An examination of SMEs from developing economies. Green Technologies and Sustainability, Volume 4, Issue 3, July 2026, 100403.

11. Zhang, H., Liu, H., Chen, R. Multilayer innovation network resilience: A framework for digital economy vulnerability assessment. iScience. PMCID: PMC12765178. 2025 Dec 1;29(1):114295. doi: 10.1016/j.isci.2025.114295.

12. Olaniyan, F.A., Ipinnaiye, O. Sustainable regional development in a resource-rich region: The case for social innovation. Resources Policy, Elsevier, vol. 112(C).

13. Dooranov, A., Kang, F., Rasulova, N., et al. Adaptation of strategic innovation management to regional sustainable development: Lessons from global SMEs and the DCT approach. Social Sciences & Humanities Open, Volume 13, June 2026, 102658.

14. Zhu, Y., Liu, J., Lin, S., Liang, K. Research Institution Engagement and Innovative Behavior of Scientific Workers in China. Journal of Innovation & Knowledge 7 (2022) 100206.

15. Cappellano, F., Matti, K., Vidmar, M. Building Anticipatory Capacity for Transformative Resilience: Lessons from UK and EU Applying Strategic Foresight in Grand Societal Challenge-Oriented Regional Policy. Technology in Society, 6 July 2026, 103453.

16. Fetschenko, V., Shadoba, E., Katkow, Y., Shchelikova, N., Glushak, N. Management of Innovative Integrated Structures of Education, Business and Science at the Regional Level. Procedia - Social and Behavioral Sciences 214 (2015) 243-251.

17. Nijkamp, P., Kourtit, K., Krugman, P., Moreno, C. Old wisdom and the New Economic Geography: Managing uncertainty in 21st century regional and urban development. Research Program Learning and Innovation for Resilience and Sustainability (LIRS). 10.1016/j.rspp.2024.100124.

18. https://www.wipo.int/gii-ranking/en/uzbekistan

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 8/2**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz